



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

"YOG'OCHDAN IQTISODIYOTGACHA: O'ZBEKISTONDA MEBELSOZLIK SANOATI"

Qodirov Abubakr Nodirxon o'g'li

Alfraganus University Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar) yo'nalishi 2- bosqich talabasi

Egamberdiyev Muzaffar

Ilmiy rahbar: Alfraganus University Iqtisodiyot fakulteti Dotsent v.b. (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston mebelsozlik sanoatining rivojlanish bosqichlari, zamonaviy holati, iqtisodiyotdagi o'rni va kelajakdagi istiqbollari tahlil qilinadi. Soha bo'yicha hukumat qaror va farmonlari, yillik statistik ma'lumotlar, mebelsozlikning madaniy hayotdagi roli hamda rivojlanish istiqbollari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Mebelsozlik, sanoat, madaniyat, hunarmandchilik, rivojlanish, modernizatsiya.

Аннотация: В статье анализируются этапы развития, современное состояние, роль в экономике и дальнейшие перспективы мебельной промышленности Узбекистана. Освещены правительственные решения и постановления в данной области, ежегодные статистические данные, роль мебельного производства в культурной жизни, перспективы развития.

Ключевые слова: Мебельное производство, промышленность, культура, ремесла, развитие, модернизация.

Abstract: This article analyzes the stages of development, current state, role in the economy and future prospects of the furniture industry of Uzbekistan. Government decisions and decrees on the sector, annual statistical data, the role of furniture in cultural life and development prospects are covered.

Keywords: Furniture, industry, culture, crafts, development, modernization.

KIRISH

O'zbekistonda mebelsozlik qadimdan mavjud bo'lgan hunarmandchilik turlaridan biridir. Xususan, qadimiy Buxoro, Xiva va Qo'qon ustalarining yog'och o'ymakorligi san'ati bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Zamonaviy mebelsozlik esa endilikda yirik sanoat tarmog'iga aylanish yo'lida rivojlanmoqda. Ichki bozorni to'ldirish, eksport salohiyatini oshirish, zamonaviy ish o'rinlari yaratish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda mebelsozlik muhim o'rin tutmoqda. Mamlakatda bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan birga, mebelsozlik sohasi ham bosqichma-bosqich yangilanib, zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilmoqda. Bugungi kunda yirik ishlab chiqaruvchilardan tortib to kichik ustaxonalargacha bo'lgan turli shakldagi subyektlar faoliyat yuritmoqda. Ayniqsa, dizayn, sifat va ekologik tozalikka bo'lgan talabning ortishi, ichki va tashqi bozorda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni talab etmoqda.

Yurtimizda bu sohaga oid davlat dasturlari, investitsion loyihalar va imtiyozli kreditlar orqali qo'llab-quvvatlash ishlari olib borilmoqda. Shu bilan birga, milliy mebel dizaynida



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

o'zbeklikka xos naqshlar va an'analar mujassam bo'lib, bu madaniy merosimizni asrab-avaylash bilan bir qatorda, uning zamonaviy talablarga moslashishini ta'minlamoqda.

ASOSIY QISM

Hunarmandchilik – xalqimizning qadimiy tarixi va madaniy hayotimizning noyob namunasidir. Aynan shu madaniy merosning muhim bo'lagi hisoblangan – mebelsozlik sanoati mamlakatimizda bosqichma-bosqich rivojlanayotgan muhim iqtisodiy tarmoqlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston mebelsozlik sanoatining rivojlanish bosqichlari quyida ko'rsatilganidek 3 davrda bo'linadi:

O'zbekiston mebelsozlik sanoatining rivojlanish bosqichlari

- Sovet davri 1950–1991 yillar oralig'ini qamrab oladi. Unda mebel ishlab chiqarish davlat korxonalari asosida amalga oshirilgan, asosan, mahalliy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qilgan edi.

- Mustaqillikdan so'nggi davr 1991–2010 yillarda esa, Xususiy sektor rivojlandi, kichik ishlab chiqaruvchilar paydo bo'ldi, biroq texnologik bazaning zaifligi muammoga aylandi.

- Zamonaviy bosqich 2017–2024 yillar davomiyligida rivojlanish holatiga keldi, ushbu zamonaviy bosqich o'z-o'zidan Investitsiyalar jalb qilinmoqda, Shu bilan bir qatorda, eksportga yo'naltirilgan strategiyalar ishlab chiqildi, klaster yondashuvi shakllanmoqda. Keling endi, 3 davrning ham batafsil tafsilotlari bilan tanishamiz:

1. Sovet Ittifoqi davri: Ma'muriy buyruqbozlik davrida O'zbekistonda mebel ishlab chiqarish markazlashtirilgan tizim asosida, davlat tasarrufidagi mebel fabrikalari orqali amalga oshirilgan. Bu fabrikalar respublikaning deyarli har bir viloyatida mavjud bo'lgan bo'lsa-da, ular asosan ichki ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilgan edi. Mahsulotlar oddiy shaklda, ko'p hollarda estetik ko'rinishi hisobga olinmasdan ishlab chiqarilgan. Dizayn va kreativlik kam bo'lib, ishlab chiqarish jarayoni mexanik darajada davom etgan deb bimalol ayta olamiz.

Texnologik asbob-uskunalar asosan Sovet Ittifoqining boshqa hududlaridan keltirilgan bo'lib, zamonaviy innovatsiyalardan ancha orqada qolgan. Bu davrda eksport amaliyoti deyarli mavjud emas edi, mebel faqat ichki bozorni ta'minlashga xizmat qilgan.

2. Mustaqillikdan keyin: 1991-yilda O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, davlat iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida tub o'zgarishlar boshlandi. Shu jumladan, mebelsozlik sohasi ham davlat qo'lidan xususiy sektorga o'ta boshladi. Ko'plab kichik sex va ustaxonalar ochildi. Bu davrda dizayn, milliy naqshlar va qo'lda tayyorlanadigan mebellar keng tarqaldi.

Biroq bu davrda texnologik bazaning zaifligi va moliyaviy resurslarning cheklanganligi asosiy muammolardan biri bo'lib qoldi. Ko'plab ustaxonalar qo'lda ishlov berish asosida mahsulot ishlab chiqarar, bu esa mahsulot hajmi va sifatining barqaror bo'lmasligiga olib kelardi. Shu bilan birga, savdo tarmog'i yetarli darajada shakllanmaganligi sababli, mahsulotlar ko'proq ichki bozorda qolib ketardi.

3. Zamonaviy davr 2017-2024 yil, So'nggi yillarda, ayniqsa 2017-yildan boshlab, mebel sanoatiga yangicha yondashuv shakllandi. Davlat tomonidan sanoatni rivojlantirish, xususiy



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

sektorni qo'llab-quvvatlash, investitsiya kiritish va eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qator muhim farmon va qarorlar qabul qilindi.

Klaster usulidagi ishlab chiqarish, logistika tizimi, eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarish, xalqaro me'yorlarga javob beruvchi dizayn va sifat mezonlarining joriy etilishi natijasida soha yuksalish bosqichiga chiqdi. Shuningdek, texnologik modernizatsiya, Xitoy, Turkiya va Yevropa texnologiyalarining joriy etilishi mebel mahsulotlarining sifati va assortimentini kengaytirdi.

Yil	Ishlab chiqarilgan mebel hajmi (mlrd so'm)	Eksport hajmi (mln dollari)
2019	1 230	12.4
2020	1 540	16.1
2021	2 020	24.7
2022	2 780	31.5
2023	3 400	43.2

(1-rasm) Yuqoridagi taqsimlangan grafikda ko'ringanidek, O'zbekistonda so'ngi 5 yilgi mebel sanoatlashuvi ko'rsatilgan.

Mebel sohasining modernizatsiya qilishi bevosita mamlakat iqtisodining ravnaqini ham chetlab o'tmaydi. O'zbekiston uchun esa bu soha ishlab chiqarishning innovatsion segmentlaridan biriga aylanib bormoqda. Mebel ishlab chiqarishning rivojlanishi nafaqat sanoatning hajmini oshiradi, balki u bilan chambarchas bog'liq bo'lgan boshqa sohalarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

1. Sanoat diversifikatsiyasi va iqtisodiy barqarorlik: Mebel sanoati — qayta ishlash sanoatining muhim yo'nalishidir. Bu tarmoqning rivojlanishi iqtisodiyotda faqat neft, gaz yoki paxta kabi an'anaviy yo'nalishlarga qaramlikni kamaytiradi. Ayniqsa, mamlakatning ichki bozorida keng iste'mol qilinadigan, ayni vaqtda tashqi bozorda ham eksport imkoniyatlariga ega bo'lgan mebel mahsulotlari, iqtisodiy barqarorlik uchun yangi manba bo'la oladi.

2. Ish o'rinlarining yaratilishi: Mebelsozlik ko'p bosqichli ishlab chiqarishni talab qiladi: dizayn, material tayyorlash, yig'ish, bezak ishlari, logistika va sotuv. Har bir bosqich o'ziga xos mutaxassislar va ishchilarni talab qiladi. Ayniqsa, qishloq joylardagi kichik sex va ustaxonalar yoshlar uchun ish bilan bandlik yaratadi. Bu esa ishsizlik darajasining kamayishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

3. Eksport salohiyati va valyuta tushumlari: So'nggi yillarda O'zbekistonda ishlab chiqarilgan mebellar Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va boshqa MDH davlatlariga eksport qilinmoqda. Bundan tashqari, Turkiya, Xitoy va Yevropa bozorlariga



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

chiqish imkoniyatlari kengaymoqda. Eksportning oshishi milliy valyuta tushumlarini ko'paytiradi va to'lov balansiga ijobiy ta'sir qiladi.

4. Mahalliy xom-ashyoni chuqur qayta ishlash: O'zbekistonda yog'och, MDF, DSP kabi materiallarni qayta ishlash orqali mebel ishlab chiqarish jarayoni mahalliy resurslardan maksimal darajada foydalanishni rag'batlantiradi. Bu esa importga bog'liqlikni kamaytirib, ichki iqtisodiy faoliyatni kuchaytiradi.

5. Madaniy meros va kreativ iqtisodiyot bilan bog'liqlik: Mebelsozlik nafaqat texnologik, balki madaniy-ijodiy soha ham hisoblanadi. Milliy naqshlar, o'ymakorlik, xalq amaliy san'ati usullarining mebel dizaynida qo'llanilishi O'zbekistonning madaniy identitetini eksport qilish imkonini yaratadi. Bu "kreativ iqtisodiyot" tarkibida turizm, dizayn, brendlashtirish sohalarini rivojlantiradi.

6. Investitsiyaviy jozibadorlik va biznes muhitining yaxshilanishi: Davlat tomonidan bu sohani rivojlantirishga qaratilgan qaror va farmonlar, soliq imtiyozlari, yer ajratish, kreditlar berish kabi choralar investorlar uchun qulay sharoit yaratmoqda. 2017-yildan keyingi yillarda aynan mebel sanoatida 200 dan ortiq yangi yirik korxona tashkil etilgan. Bu esa sanoatning infratuzilmasi, logistika tizimi va eksport platformalarini shakllantirishga zamin yaratdi.

Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekiston mebel san'ati nafaqat iqtisodiy, balki madaniy qadriyatlar bilan ham bevosita bog'liq:

- Xiva, Buxoro va Samarqand ustalarining qo'lda yasalgan o'ymakor mebellari – madaniy merosning bir qismidir.

- Mahalliy mebel dizayni o'zbek milliy naqshlari, an'anaviy bezak elementlari asosida yaratilmoqda.

- Maktablar, masjidlar, muqaddas joylar uchun tayyorlanadigan mebel turlari diniy va ijtimoiy hayotda muhim o'rin tutadi.

XULOSA

O'zbekiston mebelsozlik sanoati — yurtimiz iqtisodiyotining muhim va istiqbolli yo'nalishlaridan biridir. Qadimdan mavjud bo'lgan yog'och o'ymakorligi va mebel yasash an'analari bugungi kunda zamonaviy sanoat shaklida qayta tiklanmoqda. Bu soha o'zida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy komponentlarni uyg'unlashtirgan holda, nafaqat iqtisodiy o'sish, balki milliy identitet va madaniyatni dunyoga tanitish imkonini ham beradi.

Sohadagi yillik o'sish sur'atlari, eksport salohiyatining ortishi, xalqaro talabga mos innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarilishining yo'lga qo'yilishi mebel sanoatini ichki bozor bilan cheklanib qolmay, global raqobatga tayyorlashtirmoqda. Davlat tomonidan ishlab chiqaruvchilar uchun yaratilayotgan soliq imtiyozlari, kredit resurslari, klaster yondashuvi asosidagi yondashuvlar bu yo'nalishda chuqur islohotlar olib borilayotganidan dalolat beradi.

2022–2026 yillarga mo'ljallangan Milliy taraqqiyot strategiyasi doirasida sanoatni modernizatsiya qilish va eksportga yo'naltirish maqsad qilingan.

- "Hududiy sanoat loyihalari" dasturi orqali har bir viloyatda mebel ishlab chiqarishga oid loyihalarga imtiyozlar berilmoqda.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

● IT Park va dizayn markazlari mebel dizaynining raqamli platformalarini rivojlantirishda qo'llab-quvvatlanmoqda.

Mebelsozlikning rivojlanishi:

- iqtisodiyotda diversifikatsiyani kuchaytiradi,
- minglab yangi ish o'rinlarini yaratadi,
- milliy brend va dizayn konseptlarini rivojlantiradi,
- eksportdan keladigan valyuta tushumlarini oshiradi,
- ijodiy va texnologik salohiyatni uyg'unlashtiradi.

Kelgusida O'zbekiston mebel sanoatining yanada yuqori bosqichga ko'tarilishi uchun:

- texnologik innovatsiyalarni keng joriy etish,
- kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish,
- xalqaro standartlar va dizayn tendensiyalariga moslashish,
- ekologik barqarorlikni ta'minlash,
- va "Made in Uzbekistan" brendi ostida global bozorlarga chiqish kabi strategik yo'nalishlar muhim hisoblanadi.

Shunday qilib, mebelsozlik nafaqat yog'ochdan tayyorlangan buyum, balki O'zbekistonning yaratuvchanligi, iqtisodiy salohiyati va madaniy ruhi timsoliga aylanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi rasmiy saytida e'lon qilingan "O'zbekistonda mebel sanoatining rivojlanish istiqbollari" (2023-yil).
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi – "Yengil va qayta ishlash sanoati bo'yicha yillik ma'lumotlar to'plami" (2017–2023 yillar).
3. "Made in Uzbekistan" brendi ostida ishlab chiqarilayotgan mebellar haqida – UzA.uz (Milliy axborot agentligi), 2023-yil iyun.
4. A.Karimov. "Sanoat tarmoqlari diversifikatsiyasi va yangi ishlab chiqarish yo'nalishlari" – Iqtisodiyot va ta'lim jurnali, 2022-yil, №2.
5. A.Abdullayev. "Hunarmandchilikdan sanoatgacha: O'zbek mebelsozligining tarixiy ildizlari" – "Madaniyat va san'at" jurnali, 2021-yil, №4.
6. O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi – "Mebel sohasida kichik biznes va eksport imkoniyatlari" tahliliy hisobot, 2020-yil.
7. G.G'ulomova. "Mahalliy xom-ashyo asosida ishlab chiqarishni kengaytirish" – "Taraqqiyot strategiyasi" ilmiy jurnali, 2023-yil, №1.
8. Jahon banki O'zbekistondagi sanoat tarmoqlari tahlili: "Industrial Value Chains in Uzbekistan" (2022-yil).
9. O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi – "2023-yilda sanoat sohasida yaratilgan yangi ish o'rinlari statistikasi" (mehnat.uz).